



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Xurshid Azamatovich Yunusov Tadbir va ko'ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
Hamdam Iris o'g'li Allayorov Logistika axborot oqimlarini sun'iy intellekt asosida optimallashtirish	159
Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova Ta'lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta'siri	170
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Aksiz solig'ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
Шавкат Собирович Олтаев Рақамли иктисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
Madina Sanjar qizi Khotamkulova Corporate efficiency as a financial market participant	181
BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov Pochta xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o'ziga xos xususiyatlari	186
Ortiq Eshnazarovich Ernazarov Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
Jamshidbek Axmad ug'li Abdurasulov Korxonalarni qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Умар Худайбердиев Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
Bexzod Nematillayevich Gapparov OTM kichik guruhlarda temperamentga yo'naltirilgan pedagogik model	212
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Chet tillarni o'rganishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	216
Anvar Maxkamovich Soatov Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Рамазон луғати Бахт нима?	225

ORCID: 0000-0003-1630-8694

Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti**KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISHNING O‘ZGARTIRISH SHAKLIDA
BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI MHXS ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda milliy buxgalteriya hisobi standartlari va xalqaro standartlar talablari qiyosiy tahlil qilinib, aktivlar va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, gudvillni tan olish, konsolidatsiya va hisobot shaffofligini ta‘minlash masalalari yoritilgan. Olingan natijalar milliy hisob amaliyotini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish va davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qayta tashkil etish, o‘zgartirish shakli, adolatli qiymat, gudvill, konsolidatsiya, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.

Kirish. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kechayotgan global o‘zgarishlar, moliyaviy axborotning shaffofligi va xalqaro solishtirish imkoniyatiga bo‘lgan talablar mamlakatlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashish zaruratiga olib keldi. Bugungi kunda har bir davlat iqtisodiy tizimining barqaror o‘shirishini ta‘minlash uchun milliy hisob va hisobot tizimini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishni strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda. O‘zbekistonda ham bu jarayon izchil amalga oshirilmoqda va u davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh etish hamda bozor mexanizmlariga moslashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Qayta tashkil etishning o‘zgartirish shakli yuridik shaxsni tugatmasdan, faqat uning tashkiliy huquqiy shaklini o‘zgartirish orqali faoliyatini davom ettirishni nazarda tutadigan huquqiy iqtisodiy jarayondir. Bu shaklda korxonalar faoliyati uzluksiz bo‘lib qoladi, faqat uning boshqaruv va hisob tizimi yangi shaklda ifodalanadi. Masalan, davlat unitar korxonasi aksiyadorlik jamiyati yoki mas‘uliyati cheklangan jamiyatga aylantirilishi mumkin. Bu esa faqat nom o‘zgarishi emas, balki boshqaruv, hisobot va moliyaviy munosabatlarning butunlay yangi darajaga ko‘tarilishini anglatadi.

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yil ichida davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlari keng ko‘lamda amalga oshirildi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2014-yilda mamlakatda 6 mingdan ziyod davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 2,3 mingga tushgan. Bu 61 foizlik qisqarish davlat ishtirokini bosqichma bosqich kamaytirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va xususiy sektor faoliyatini kengaytirish yo‘nalishidagi izchil islohotlarning amaliy natijasidir. Ayniqsa, davlat unitar korxonalarining katta qismi aksiyadorlik jamiyati yoki mas‘uliyati cheklangan jamiyat shakliga o‘tkazilib, korporativ boshqaruv tizimlari joriy qilindi¹. Mazkur jarayonning iqtisodiy ahamiyati shundaki, u davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish, xo‘jalik hisobini kuchaytirish va faoliyatni bozor talablariga moslashtirish imkonini beradi. Korxonalar mustaqil moliyaviy subyektga aylandi, harajatlar va daromadlar bo‘yicha hisobotlar segmentlar kesimida yuritiladi, bu esa rentabellikni aniq baholash va xo‘jalik mas‘uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda qayta tashkil etilgan korxonalarda foydalilik darajasi o‘rtacha 5,8 foizdan 19,5 foizgacha oshgan, aktivlar qiymati esa qariyb ikki barobarga o‘sgan².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Korxonalarni qayta tashkil etish, xususan uning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mazkur masala hisob tizimlarini globallashtirish sharoitida muvofiqlashtirish, moliyaviy axborotning shaffofligini ta‘minlash va investorlar uchun ishonchli muhit yaratish nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

¹ Davaktiv.uz hisoboti

² Davaktiv.uz hisoboti

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda korxonalarini qayta tashkil etish va biznes birlashuvlarining hisobda aks ettirilishi masalalari, asosan, MHXS 3 “Biznes birlashuvlari”, MHXS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” va MHXS 13 “Adolatli qiymatni aniqlash” standartlari doirasida o‘rganilgan. Xususan, Ya.V. Sokolov buxgalteriya hisobi nazariyasida qayta tashkil etish jarayonlarini iqtisodiy mazmundan kelib chiqqan holda baholash zarurligini ta’kidlab, hisob axboroti faqat yuridik shaklni emas, balki iqtisodiy mohiyatni aks ettirishi lozimligini asoslab beradi. Uning fikricha, hisobda adolatli qiymatdan foydalanish korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

V.F. Paliy o‘z tadqiqotlarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish jarayonida biznes birlashuvlari va qayta tashkil etish natijalarini hisobda to‘g‘ri aks ettirish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. Olim MHXS asosida hisob yuritish korxonalarining moliyaviy natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini oshirishini hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqish uchun zarur shart ekanligini ta’kidlaydi.

A.A. Xomyakov ishlarida biznes birlashuvlari va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Muallif qayta tashkil etish jarayonida aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, gudvillni tan olish hamda impairment test o‘tkazish mexanizmlari hisob axborotining ishonchliligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, xalqaro konsalting kompaniyalari – KPMG, Deloitte va Ernst & Young tomonidan tayyorlangan uslubiy qo‘llanmalarda MHXS asosida qayta tashkil etish, biznes birlashuvlari va konsolidatsiya hisobini yuritishning amaliy jihatlari keng yoritilgan. Ushbu manbalarda transformatsiya jarayonlarida hisob siyosati, baholash usullari va hisobot shakllarini muvofiqlashtirish bo‘yicha aniq amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham korxonalarini qayta tashkil etish va buxgalteriya hisobi masalalari muayyan darajada o‘rganilgan. Ayrim tadqiqotlarda milliy buxgalteriya hisobot standartlari doirasida qayta tashkil etishda hisobot tuzish tartibi yoritilgan bo‘lsa-da, ularda xalqaro standartlar bilan to‘liq qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. Xususan, BHMS 23 “Qayta tashkil etishda moliyaviy hisobotni shakllantirish” standartida aktivlarning adolatli qiymatda baholanishi, gudvillni tan olish va impairment test kabi mexanizmlar to‘liq qamrab olinmagan. O‘zbekistonlik ayrim tadqiqotchilar tomonidan biznes birlashuvlari, gudvill hisobi va xalqaro standartlarni joriy etish masalalariga bag‘ishlangan ishlar mavjud bo‘lsa-da, qayta tashkil etishning aynan o‘zgartirish shaklida hisob yuritish va hisobotni MHXS asosida takomillashtirish masalasi kompleks tarzda kam o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Korxonalarini qayta tashkil etish jarayonlarining o‘zgartirish shaklining iqtisodiy mohiyatini aniqlash, nazariy asoslarini umumlashtirishda tahlil va sintez usullari, iqtisodiy-statistik usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, MHXS 3 standarti gudvillni hisobga olishni talab qiladi. Gudvill korxonaning obro‘si, mijozlar bilan munosabatlari, bozordagi reputatsiyasi orqali shakllangan nomoddiy aktivdir. Milliy amaliyotda bu kabi nomoddiy aktivlar aks ettirilmagani uchun, kompaniyaning haqiqiy qiymati ko‘p hollarda kam baholanadi. Bu esa tashqi investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun ishonchsiz ma’lumotlar xavfini keltirib chiqaradi. Boshqa muhim jihati konsolidatsiya (bir necha kompaniyalarning yagona hisobotini tuzish) amaliyoti. Milliy tizimda bu asosan aksiyadorlik jamiyatlari uchun qo‘llanilsa, MHXS 10 talablariga ko‘ra, har qanday nazorat munosabati mavjud bo‘lgan guruh subyektlari uchun majburiy hisoblanadi. Bu xalqaro investorlar uchun hisobotlarning solishtirish imkonini oshiradi. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslashtirish O‘zbekistondagi korxonalar uchun nafaqat hisobotning shaffofligini ta’minlaydi, balki tashqi sarmoyalar jalb etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik etish va reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Masalan, MHXS hisobotiga o‘tgan “O‘zbekneftgaz” AJ va “O‘zmetkombinat” AJlarining xalqaro bozordagi ishonch darajasi oshdi, kredit reytinglari yaxshilandi va tashqi investitsiya kirib kelishi faollashdi¹.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, amalda qator muammolar ham mavjud.

¹ Davaktiv.uz sayti ochiq ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Birinchidan, baholovchi tashkilotlar faoliyati yetarlicha institutsional darajada rivojlanmagan.

Ikkinchidan, buxgalterlar va auditorlarning xalqaro standartlar bo'yicha malakasi past darajada.

Uchinchidan, hisob tizimlarining raqamlashuvi to'liq ta'minlanmagan. Bu holatlar hisobotlarning sifatini pasaytiradi va islohot samaradorligini cheklaydi.

Shu sababli, fikrimizcha ilmiy va amaliy nuqtai nazardan quyidagi yechimlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Milliy buxgalteriya standartlarini MHXS 3, MHXS 10 va MHXS 13 talablariga uyg'unlashtirish;
- Aktiv va majburiyatlarni baholashda adolatli qiymat usulini joriy etish;
- BHXS 36 asosida gudvill va impairment test amaliyotini qonunchilik asosida joriy etish;
- Buxgalter kadrlarning MHXS bo'yicha malakasini oshirish uchun sertifikat dasturlarini kengaytirish;
- Elektron hisobot va raqamli moliyaviy tizimlarni to'liq avtomatlashtirish.

Xalqaro amaliyot tadqiqi shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi va Turkiyada MHXSning to'liq joriy etilishi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalar rentabelligi 15–20 foizga oshgan, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligi esa xalqaro audit agentliklari tomonidan yuqori baholangan. O'zbekistonda ham bu jarayon bosqichma bosqich amalga oshirilayotgan bo'lib, uning ilmiy asoslangan tarzda rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Qayta tashkil etishning o'zgartirish shakli O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning strategik yo'nalishi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Bu shakldagi qayta tashkil etish milliy hisob tizimini xalqaro mezonlarga moslashtirish, davlat ishtirokidagi aktivlarni samarali boshqarish va hisobotlarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish, buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va kadrlar malakasini oshirish orqali O'zbekiston moliyaviy hisobotlar sohasida xalqaro darajaga chiqishi mumkin. Bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirib, uni global iqtisodiy tizimning ishonchli ishtirokchisi sifatida mustahkamlaydi(1-jadval).

1-jadval

Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti taqqoslamasi

Ko'rsatkich	Yevropa Ittifoqi	Turkiya	O'zbekiston
MHXSni joriy etish darajasi	100%	95%	65%
Davlat korxonalarini xususiyashtirish	85%	72%	58%
Gudvill hisobga olish amaliyoti	To'liq joriy	Qisman	Yo'q
Impairment test amaliyoti	Yo'lga qo'yilgan	Yo'lga qo'yilgan	Amalda yo'q
Davlat statistika tizimida qayta tashkil etish hisoboti	Avtomatlashgan	Markazlashgan	Yo'q
Buxgalter kadrlar malakasi	MHXS sertifikatsiya	MHXS dasturlari	Bosqichma-bosqich joriy etilmoqda

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda xalqaro standartlarni joriy etish jarayoni bosqichma bosqich kechayotgan bo'lsada, Yevropa va Turkiya amaliyoti bilan solishtirganda hali yetarli darajaga yetmagan. Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun moliyaviy hisob va hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va sarmoyalar harakati kengaygan sharoitda milliy buxgalteriya tizimlarining xalqaro talablar bilan uyg'unlashuvi nafaqat investitsion muhitni yaxshilaydi, balki moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligi va shaffofligini ham ta'minlaydi. Shu boisdan, O'zbekistonda ham oxirgi o'n yillik davomida davlat ishtirokidagi korxonalarini qayta tashkil etish, ularni bozor tamoyillariga moslashtirish va hisob tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. O'zgartirish shaklidagi qayta tashkil etish yuridik shaxsning tugatilmasdan, faqat uning tashkiliy huquqiy shaklini o'zgartirish orqali faoliyatini davom ettirish jarayoni hisoblanadi. Bunday shaklda yuridik shaxsning barcha huquq

va majburiyatlari yangi tashkil etilgan subyektga to‘liq vorislik asosida o‘tadi. Bu jarayonda korxonalar-soni oshmaydi yoki kamaymaydi, balki uning huquqiy formasi o‘zgaradi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati mas’uliyati cheklangan jamiyatga aylantirilishi, davlat unitar korxonasi aksiyadorlik jamiyati yoki xususiy korxonaga aylanishi mumkin. Bu jarayon korxonaning tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, uning moliyaviy hisobot tizimini bozor tamoyillariga moslashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

2-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalar sonining o‘zgarishi (2014–2024)¹

Yillar	Davlat korxonalari umumiy-soni	Ulardan DUK	AJ	MCHJ	Qisqartirish (%)	darajasi
2014	6 020	2 200	1 000	2 820	–	
2016	5 120	1 950	980	2 190	15	
2018	4 130	1 580	850	1 700	31	
2020	3 150	1 150	700	1 300	48	
2022	2 620	920	580	1 120	56	
2024	2 300	450	258	1 592	61	

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi o‘n yilda davlat ishtirokidagi korxonalar-soni qariyb uch baravarga qisqargan. Bu jarayonda davlat unitar korxonalarining aksar qismi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. Qayta tashkil etishning bu shakli iqtisodiy mazmunan davlat ishtirokidagi aktivlarni samarali boshqarish, ularni raqobatbardosh biznes subyektlariga aylantirish hamda davlat ulushini bosqichma bosqich qisqartirish strategiyasining asosiy qismi hisoblanadi. 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan “Davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh etish strategiyasi”ga ko‘ra, 2030-yilga qadar davlat ulushi bo‘lgan korxonalar-sonini 6 barobargacha qisqartirish rejalashtirilgan. Bu jarayonda davlat unitar korxonalari va aksiyadorlik jamiyatlarining ko‘pchiligi faoliyatini yangi tashkiliy huquqiy shaklda davom ettirmoqda.

3-jadval

Qayta tashkil etish jarayonlarining o‘zgartirish shaklini amalga oshirgan korxonalar tahlili²

№	Korxonalar nomi	Ilgarigi shakli	Yangi shakli	Yil	Maqsad
1	“O‘zmetkombinat”	DUK	AJ	2018	Korporativ boshqaruvni joriy etish
2	“O‘zavtosanoat”	Holding	AJ	2019	Korxonalarini ixtisoslashtirish
3	“O‘zbekneftgaz”	DUK	AJ	2020	Xalqaro hisobot standartlariga o‘tish
4	“O‘ztelekom”	DUK	MCHJ	2021	Raqamli xizmatlar segmentini ajratish
5	“O‘ztemiryo‘lkonteyner”	Filial	MCHJ	2022	Mustaqil moliyaviy hisobot yuritish

Jadvalda nomi keltirilgan korxonalar o‘zgartirish shaklidagi qayta tashkil etish faqat huquqiy o‘zgarish ekanligini emas, balki boshqaruv, hisob va hisobot tizimini modernizatsiya etish vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Hisob va hisobot nuqtai nazaridan, o‘zgartirish shaklidagi qayta tashkil etishda eng muhim vazifa yuridik shaxsning faoliyatidagi uzluksizlikni ta’minlash va barcha aktiv hamda majburiyatlarning haqiqiy qiymatda aks ettirilishini ta’minlashdir. Milliy amaliyotda bu jarayon asosan “Buxgalteriya hisobi milliy standarti”ning 23-soni “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish” talablariga asoslanadi. Biroq bu standartda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS 3 “Biznes birlashuvlari”, MHXS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot”, MHXS 13 “Adolatli qiymatni aniqlash”) me’yorlari to‘liq qamrab olinmagan. Natijada amaliyotda aktivlar ko‘pincha qoldiq qiymat bo‘yicha taqsimlanadi, gudvill yoki salbiy gudvill tan olinmaydi, taqsimot balansi shakli yagona formatda

¹ Davlat aktivlarini boshqarish agentligi(DABA), 2024-yil hisoboti asosida tayyorlandi.

² Davlat aktivlarini boshqarish agentligi(DABA), 2024-yil hisoboti asosida tayyorlandi.

belgilanmagan. Shu sababli hisobotlardagi ma’lumotlar xalqaro investorlar va auditorlar uchun har doim ham solishtiriladigan darajada bo’lmaydi. Xalqaro amaliyotda esa bunday qayta tashkil etish jarayonlari adolatli qiymat usuli asosida aktiv va majburiyatlarni baholash majburiy hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o’zgartirish shaklidagi qayta tashkil etish jarayonida moliyaviy hisobotlar MHXS talablariga mos tarzda qayta shakllantiriladi, vorislik asosidagi balans tuziladi va gudvill yoki hariddan kelgan foydamoliyaviy hisobotlarda tan olinadi. Bu amaliyot hisobotlardagi ma’lumotlarning ishonchliligini oshirib, tashqi sarmoyadorlar uchun shaffof axborot muhitini yaratadi.

4-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining buxgalteriya hisobi milliy standartlari bilan solishtirish jadvali

Ko’rsatkich	BHMS	MHXS	Amaliy ahamiyati
Aktivlarni baholash usuli	Qoldiq qiymat	Adolatli (bozor) qiymat	Haqiqiy moliyaviy holatni aks ettirish
Gudvillni tan olish	Yo’q	Majburiy (MHXS 3)	Bozordagi noqidiy aktivlarni hisobga olish
Konsolidatsiya	Faqat AJlar uchun	Barcha guruhlar uchun (MHXS 10)	Guruh hisobotlarining aniqligi
Hisobot formati	Mahalliy	Yagona xalqaro (BHXS 1)	Solishtirish imkoni
Impairment test	Mavjud emas	BHXS 36 bo’yicha majburiy	Aktivlarning haqiqiy qiymatini baholash

Milliy standartlar odatda sodda va mahalliy bozor talablariga moslashgan bo’lsa, MHXS hisobotlarni xalqaro tadqiq uchun ifodalaydi. O’zbekiston amaliyotida bu jarayon hali to’liq institutsionallashmagan. Milliy buxgalteriya tizimida aktivlarni adolatli qiymatda baholash amaliyoti yetarlicha rivojlanmagan, baholovchi tashkilotlar faoliyati cheklangan va malaka jihatidan MHXS talablariga mos emas. Shuningdek, buxgalterlar va auditorlarning xalqaro standartlar bo’yicha bilim va ko’nikmalari yetarli darajada emasligi qayta tashkil etish jarayonlarida hisobotlarning sifatini pasaytiradi.

Boshqa tomondan, xalqaro standartlar asosida hisob yuritishning afzalliklari juda katta. Birinchidan, adolatli qiymat usuli asosida aktivlarni baholash moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlaydi, ikkinchidan, korporativ boshqaruv va shaffoflikni kuchaytiradi, uchinchidan, xorijiy investorlar uchun mamlakat iqtisodiyoti haqida xolis va ishonchli ma’lumot beradi. Shuning uchun ham xalqaro standartlarni milliy amaliyotga to’liq joriy etish davlat korxonalarini transformatsiya etish jarayonida ustuvor ahamiyatga ega.

5-jadval

Qayta tashkil etish jarayonlarining o’zgartirish shaklida qayta tashkil etishning iqtisodiy natijalari (2015–2024)¹

Yil	Qayta tashkil etilgan korxonalar-soni	Rentabellik o’sishi (%)	Aktivlar qiymati (trln so’m)	Xususiy sektor ulushi (%)
2015	120	5.8	19.6	28
2017	240	9.2	23.1	33
2019	410	12.7	28.5	41
2021	530	15.4	34.9	49
2023	720	18.2	42.3	57
2024	810	19.5	45.8	60

Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, qayta tashkil etish natijasida korxonalarda rentabellik o’sishi barqaror holat kasb etgan va davlat ishtirokining qisqarishi iqtisodiy samaradorlikni oshirgan.

O’tgan 10 yildagi statistik ma’lumotlar shuni ko’rsatmoqdaki, davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va ularning moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish mamlakat iqtisodiyotining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatgan. Masalan, Davlat

¹ Davlat aktivlarini boshqarish agentligi(DABA), 2024-yil hisoboti asosida tayyorlandi.

statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, qayta tashkil etilgan korxonalarining o‘rtacha rentabellik darajasi so‘nggi 5 yilda 18 foizga oshgan, ularda ishlab chiqarish samaradorligi 22 foizga o‘sgan. Bu raqamlar qayta tashkil etish va xalqaro standartlarni joriy etishning iqtisodiy foydasini yaqqol namoyon etadi. Biroq, hali ham qator tizimli muammolar mavjud: hisob tizimining avtomatlashtirish darajasi past, auditorlik tekshiruvlari yetarlicha mustaqil emas, gudvillni hisobga olish amaliyoti yo‘q, taqsimot balansi standartlashtirilmagan. Shu sababli, kelgusida qayta tashkil etish jarayonlarining samaradorligini ta‘minlash uchun quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Birinchidan, milliy buxgalteriya standartlarini MHXS 3, MHXS 10 va MHXS 13 me‘yorlariga uyg‘unlashtirish lozim.

Ikkinchidan, adolatli qiymat usuli asosida baholash tizimini joriy etish va baholovchi tashkilotlar malakasini oshirish kerak.

Uchinchidan, gudvillni tan olish va BHXS 36 talablariga mos ravishda impairment testini amalga oshirishni normativ asosga kiritish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, buxgalter va auditorlar uchun xalqaro standartlar bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini keng yo‘lga qo‘yish lozim. Beshinchidan, taqsimot balansi uchun yagona normativ shakl ishlab chiqilib, uni BHMS tarkibiga kiritish zarur.

Xulosa va takliflar. Qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida tashkil etish O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, moliyaviy shaffoflikni oshirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu jarayon davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini bozor mexanizmlariga moslashtirish, moliyaviy axborotlarning aniqligi va xolisligini ta‘minlash hamda xalqaro investorlar uchun ishonchli axborot muhitini shakllantirish orqali mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida qayta tashkil etishning o‘zgartirish shakli yuridik shaxsni tugatmasdan, uning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish orqali faoliyat uzluksizligini ta‘minlaydigan samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu shaklda korxonaning barcha huquq va majburiyatlari vorislik asosida saqlanib qoladi, bu esa xo‘jalik faoliyatining barqarorligini ta‘minlaydi. Natijada, korxonalar mustaqil moliyaviy subyekt sifatida faoliyat yuritib, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida hisob yuritishda MHXS 3 “Biznes birlashuvlari”, MHXS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” va MHXS 13 “Adolatli qiymatni aniqlash” standartlari asosiy metodologik mezon bo‘lib xizmat qiladi. Biroq amaldagi milliy buxgalteriya standartlarida aktivlarni adolatli qiymatda baholash, gudvillni tan olish, impairment test o‘tkazish hamda vorislik balansi shaklini standartlashtirish masalalari to‘liq qamrab olinmagan. Bu esa moliyaviy hisobotlarda ma‘lumotlarning solishtirilish imkoniyatini cheklamoqda.

Shu munosabat bilan, qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida hisob va hisobot tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- milliy buxgalteriya hisob standartlarini MHXS 3, MHXS 10 va MHXS 13 talablariga uyg‘unlashtirish;
- aktiv va majburiyatlarni baholashda adolatli qiymat usulini keng joriy etish;
- gudvillni tan olish va BHXS 36 asosida impairment test amaliyotini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash;
- baholovchi tashkilotlar faoliyatini institutsional rivojlantirish va ularning rolini aniq belgilash;
- buxgalter va auditor kadrlarning MHXS bo‘yicha malakasini oshirish uchun sertifikatlash dasturlarini kengaytirish;
- hisob va hisobot tizimini raqamlashtirish hamda elektron hisobot platformalarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tashkil etish nafaqat hisob tizimini takomillashtirish, balki iqtisodiy islohotlarning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu jarayon

milliy hisob tizimini xalqaro mezonlar bilan uygʻunlashtirish, moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish va davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Natijada, mamlakatning investitsion jozibadorligi oshadi va Oʻzbekiston jahon moliya tizimidagi oʻrni mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi”.
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi Qonuni.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-iyuldagi 469-son qarori. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”.
4. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 3 – Business Combinations. London: IFRS Foundation.
5. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 10 – Consolidated Financial Statements. London: IFRS Foundation.
6. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 13 – Fair Value Measurement. London: IFRS Foundation.
7. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 36 – Impairment of Assets. London: IFRS Foundation.
8. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 38 – Intangible Assets. London: IFRS Foundation.
9. KPMG. Business Combinations and Consolidation under IFRS. London, 2022.
10. Deloitte. IFRS in Focus: Accounting for Business Combinations. Deloitte Global, 2023.
11. Ernst & Young. Applying IFRS: Business Combinations and Goodwill Accounting. EY Global, 2022.
12. Paliy V.F. Buxgalterskiy uchets i otchetnost po mezhdunarodnym standartam. Moskva: Finansy i statistika, 2020.
13. Sokolov Ya.V. Teoriya buxgalterskogo ucheta. Moskva: Magistr, 2019.
14. Khomyakov A.A. Uchet obʻedineniy biznesa i konsolidatsiya otchetnosti. Sankt-Peterburg: Piter, 2021.
15. Abdurasulov J.A. Biznes birlashuvlari jarayonlarida gudvill hisobini takomillashtirish masalalari. // Iqtisodiyot va moliya jurnali. Samarqand, 2024.

<p>Ж.Абдурасулов</p> <p>Совершенствование бухгалтерского учета и отчетности при реорганизации предприятий в форме преобразования на основе МСФО</p> <p>Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования бухгалтерского учета и финансовой отчетности при реорганизации предприятий в форме преобразования на основе Международных стандартов финансовой отчетности. Проведен сравнительный анализ требований национальных и международных стандартов учета, рассмотрены вопросы оценки активов и обязательств по справедливой стоимости, признания гудвилла, консолидации и повышения прозрачности отчетности. Полученные результаты направлены на сближение национальной учетной практики с международными стандартами и повышение финансовой эффективности предприятий с государственным участием.</p> <p>Ключевые слова: реорганизация, форма преобразования, справедливая стоимость, гудвилл, консолидация, МСФО.</p>	<p>J.Abdurasulov</p> <p>Improving Accounting and Financial Reporting in the Transformation Form of Enterprise Reorganization Based on IFRS</p> <p>Abstract. This article examines the improvement of accounting and financial reporting in corporate reorganization through transformation based on International Financial Reporting Standards. A comparative analysis of national and international accounting standards is conducted, focusing on fair value measurement of assets and liabilities, goodwill recognition, consolidation, and enhancement of reporting transparency. The findings contribute to harmonizing national accounting practices with IFRS and improving the financial performance of state-involved enterprises.</p> <p>Keywords: reorganization, transformation form, fair value, goodwill, consolidation, IFRS.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.